

PRAGMALINGVISTIKANING SHAKLLANISHI VA O'RGANILISHI

Ergasheva Shahlo Tohirovna

Farg'ona davlat universiteti magistranti

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada pragmatikaning shakllanishi va o'rganilishi, pragmalingvistikaning qaysi fanlar bilan aloqadorligi hamda uning maqsad va vazifalari yoritilgan.*

***Kalit so'zlar:** pragmatika, antropotsentrik tilshunoslik, kommunikativ axborot, semiotika.*

“Pragmatika” — yunoncha “ish”, “harakat” kabi fikrlarni anglatib, nutqdagi til birliklarining funktsionalligini o'rganuvchi semiotika va tilshunoslikning yo'nalishidir. Bu soha Sokratdan oldingi davrlarda ham qo'llanilgan va keyinchalik uni J.Lokk, E.Kant singari faylasuflar Aristoteldan o'zlashtirganlar. Shu yo'sinda “Pragmatika” oqimi vujudga keldi. Yillar o'tib bu fan sohasi zamonaviy tilshunoslik yo'nalishiga aylanib bordi. Bugungi kunda “Pragmatika” — “Pragmalingvistika” nomli yangi soha sifatida rivojlanib, o'rganilmoqda va tadqiqotlar olib borilmoqda. Pragmalingvistika tilshunoslikning mustaqil yo'nalishi sifatida o'tgan asrning 70-yillarida shakllandi. 1970-yilda Dordrext shahrida “Tabiiy tillar pragmatikasi” (Pragmatics of natural languages) mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Konferensiya yakunida barcha qatnashuvchilar yagona: “Tabiiy til vositasida bajariladigan muloqotning pragmatik xususiyatlari ushbu muloqotning sintaktik va semantik xususiyatlari kabi lingvistik nazariyasi doirasida o'rganilishi lozim” fikrga kelishdi.[1.34]

“Pragmalingvistika” fani gnoseologiya, tasavvuf, mantiq, (formal, dialektik), ilmiy tadqiqot metodologiyasi, sotsiologiya, madaniyatshunoslik, psixologiya, axborot texnologiyalari fanlari bilan bog'liq bo'lib, “Hozirgi o'zbek adabiy tili”, “Til tarixi”, “Tilshunoslik nazariyasi”, “Sotsiollingvistika”, “Psixolingvistika”, kabi fanlar bilan uzviy va ketma-ket bog'lanadi. I. A. Boduen de Kurtene ta'biri bilan aytganda, “til faqat til jamoasini tarkib toptirgan individual miyalarda, ko'ngillarda va individlarning psixikasida mavjud bo'ladi”. Pragmalingvistikaning asosiy maqsadlaridan biri lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini, ya'ni tilni axborot-kommunikatsiya vositasi sifatida o'rganishdir. O'tgan asr oxirlarida antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri sifatida maydonga kelgan pragmalingvistikada til egalarining borliqni idrok etishi, olam haqidagi tasavvurlari va uni tilda aks ettirishi, lisoniy

tafakkuri, til ko'nikmasi, nutqiy faoliyati, nutq obyektini haqidagi bilimlari, ruhiyati, voqelikka munosabati, kasb-kori, yoshi, gender belgisi kabi nolisoniy omillar bilan bog'liq holda tadqiq etishga jiddiy e'tibor qaratila boshlandi. [2.64]

Pragmalingvistika hozirgi kunga kelib o'rganish ob'yekti, asosiy tushunchalari, terminologik tizimi, nazariy muammolari, maqsad va vazifalarini aniq belgilab oldi. Pragmalingvistikaning tadqiqot obyektini, ya'ni muloqot tizimi tahlili asosini faoliyat nazariyasi tashkil etadi. Keyingi yillarda so'z darajasida ifodalangan axborot lisoniy birlikning keng kontekstda funksiyaga kirishuvi nuqtai nazardan o'rganila boshlandi. Bu o'rinda lisoniy birlik ifodalaydigan kommunikativ maqsad, munosabat, harakat va ularning emotiv, volyuntativ, appelyativ, munosabat o'rnatuvchi va estetik funksiyalari qo'shimcha (konotativ) ma'no, pragmatic ma'no sifatida ham talqin qilina boshlandi. Bu yerda so'zlovchi shaxs yoki muallifning tinglovchi yoki kitobxonning diqqat-e'tiborini tortish, ularga kommunikativ ta'sir qilish, qiziqtirib qo'yish, fikrini jalb qilish yoki aksincha, chalg'itish, hayajonga solish, to'liqlantirish, ishontirish yoki aldashga urinishida so'zning, so'z birikmasining, ekspressiv-emotsional baholovchi konotativ ma'nosini, ya'ni pragmatic ma'nosini tadqiq qilish ehtiyoji vujudga keldi.[3.56] Shunday qilib so'z ifodalaydigan qo'shimcha ma'noni qo'llash kommunikativ-pragmatik ehtiyoj va qarashlar orqali ro'y beradi. Quyida ruhiy holat fe'llarida pragmalingvistik tadqiqot olib boramiz.

Abgor bo'lmoq	Zerikmoq	G'ururlanmoq	His qilmoq	Quvonmoq
Aybdor bo'lmoq	Jazavaga tushmoq	G'am-g'ussaga botmoq	Minnador bo'lmoq	Telba bo'lmoq
Aqldan ozmoq	Achinmoq	Siqilmoq	O'ylanmoq	Hayol surmoq
Xafa bo'lmoq	Azoblanmoq	Sevmoq	Mag'rurlanmoq	Ezilmoq
Tushlikka tushmoq	Qayg'uga botmoq	Xursand bo'lmoq	Samimiy bo'lmoq	Hayolidan ko'tarilmoq
Sedan og'moq	Sarosimaga tushmoq	Umidsizlikka tushmoq	Xushmuomala bo'lmoq	Esidan chiqmoq
Baxtni tuymoq	Qo'rqmoq	Sabr qilmoq	Shodlanmoq	unutmoq
Baxtiyor bo'lmoq	Fikr yuritmoq	Dard chekmoq	Muzlam bo'lmoq	Xotirasini yo'qotmoq
Mahzun bo'lmoq	Xo'rsinmoq	Faxrlanmoq	O'kinmoq	Sevinmoq
G'am chekmoq	O'kinmoq	Zavqlanmoq	Ikkilanmoq	Hayol surmoq
Kuyunmoq	Zo'riqmoq	Uylamoq	Sog'inmoq	Qayg'urmoq
Nafratlanmoq	Asabiylashmoq	Hayajonlanmoq	Iztiroblanmoq	Hasratlanmoq
Shubhaga bormoq	Sustkash bo'lmoq	Sevinchga to'lmoq	Hushidan ayrilmoq	Quvonchga to'lmoq

Ingliz tili grammatikasida — ruhiy holat (psixik fe'l) yoki voqeani ifoda etgan fe'l (masalan: qo'rqitish, iltimos, g'azab va xafa bo'lish) bor. Shuningdek, psixologik fe'l, ruhiy fe'l, tajribali fe'l va hissiy fe'l deb ham ataladi. (Psixik predisat terimlari ba'zan psixik fe'llarga va ulardan olingan psixik sifatlarga nisbatan ishlatiladi). Ruhiy holat fe'li (psixik fe'l) ning ikkita asosiy turi mavjud: masalan, tajribali shaxs (masalan, "Men yomg'irli kunlarni yaxshi ko'raman") va ob'ekt sifatida tajribaga ega bo'lganlar ("Yomg'irli kunlar meni xursand qiling"). Bunda birgina yomg'irli kunning ruhiyatda ikki xil ko'rinishda ifodalanishi va obyekt va subyektlar tasvirida ko'rdik. Ruhiy holat fe'llari sinfida shuningdek, (psixik fe'l) deb nomlanuvchi) aql-idrok, idrok va tuyg'u fe'llari kiradi. Siyz –ob'ektni belgilashda farqlash ham tillar, ham bir tilda bo'ladi. Bunda biz ruhiy holat fe'llarini pragmatik jihatdan tahlilga olsak, unda ifodalanayotgan ma'no auditoriyada nechta kishi yoki nechta obyekt bo'lsa shuncha ma'no ifodalaydi. Misol uchun birgina "yaxshi ko'rmoq" fe'lini oladigan bo'lsak, bunda auditoriyaga hamma hayolida ruhiyatida ifodalagan ma'noni yozsin deyilganda auditoriyadagi insonlar biron bir shaxsga, fanga, narsa-buyum va shu kabi predmetlarga bo'lgan ruhiyatidagi ma'noni ifodalaydi.

1. "Men oilamni yaxshi ko'raman".
2. "Men gullarni yaxshi ko'raman".
3. "Men adabiyot fanini yaxshi ko'raman".
4. "Men kitoblarni yaxshi ko'raman".

Bu misollardan ko'rinib turibdiki, ruhiyatda tasvirlanadigan ma'no turlicha. Demak, ruhiy holatda birgina fe'l turlicha ma'nolarni ifodalamoqda. Ruhiy holat fe'llaridagi pragmatik jarayon uning turli ma'no ifodalashi, shaxs ongidagi nutqiy faoliyatdir. Bu subyektning obyektga bo'lgan munosabatida ham ifodalaganligini ko'rishimiz mumkin. Bunda har bir ruhiy holat fe'li kommunikativ axborot almashinuvida faol ishtirok etmoqda. Uning shaxs ingidagi ifodaviyligi subyektning obyektga bo'lgan munosabatida axborot almashinuvi sodir bo'lmoqda. Xullas, nutqning shaxs ongidagi konnotativ xususiyatlari til tizimining barcha sathlariga oid vositalarda, shuningdek, noverbal birliklar (ruhiy holat fe'llari) orqali reallashadi. Bu vositalar nutqiy ta'sirchanlikni oshirish, ta'kidni hosil qilish, shuningdek, subyektiv baho munosabatini aks ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar:

1. M. Hakimov “O‘zbek pragmalingvistikasi asoslari”, Toshkent, “Akademnashr”, 2013.
2. Қурбонова М. Ўзбек болалари нутқининг прагмалингвистик аспекти. Монография.
3. Қурбонова М. Болалар нутқида коммуникатив-прагматик тўсиқнинг пайдо бўлиши Тил ва адабиёт таълими. — Тошкент, 2013.